

**"OLIY TA'LIM BILAN QAMROVNI KENGAYTIRISH, OLIY MA'LUMOTLI
MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISH."**

Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya ta'lism yo'nalishi 2-
bosqich talabasi*

Mallayev Normamat Ramazonovich

*Ilmiy Rahbar: Yuridik fakulteti o'qituvchisi Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi
kafedrasi dotsenti*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda oliy ta'lism tizimining roli va oliy ma'lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, ommaviy va xususiy oliy ta'lism muassasalari o'rtasidagi farqlar, shuningdek, O'zbekistonning oliy ta'lism muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rni va Qozog'iston bilan taqqoslanganda mavjud tafovutlar hamda kelajakda erishilishi kutilayotgan maqsadlar haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lism, muassasa, reyting, yuqori reytingli universitetlar, davlat byudjeti, ommaviy muassasa, xususiy muassasa*

Zamonaviy jamiyatda taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri — bilim va malakadir. Globallashuv jarayonlari yanada chuqurlashayotgan bugungi kunda har bir davlatning raqobatbardoshligini ta'minlashda oliy ta'lism tizimi markaziy o'rin tutadi.

Oliy ta'lism hozirgi kunda nafaqat kasb egallahning asosiy vositasi, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish, innovatsion fikrlash, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy faoliytkni shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan institut sifatida tan olinmoqda.

Shuning uchun oliy ta'lism tizimining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish, zamon talablariga javob beradigan ta'lism tizimini yaratish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston uchun ham bu masala ayniqsa muhim bo'lib qolmoqda, chunki so'nggi yillarda mamlakatda oliy ta'lism sohasida qator islohotlar amalga oshirildi. Ular jumlasiga, oliy ta'lismni yo'nalishini kengaytirish va resurslarni samarali taqsimlash orqali 8 ta oliygojni 3ta yirik oliygohta birlashtirilib, 45,6 milliard so'm mablag' tejaldi.

Bakalavriat yo'nalishlarining 40 foizi (306 tadan 183 taga) maqbullashtirildi va TOP-300 oliygohlar dasturlari asosida 1 200 ta ta'lism dasturi takomillashtirildi. 39 ta ta'lism dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. O'quv jarayonini raqamlashtirish orqali kontrakt to'lash, stipendiya olish, yotoqxona ajratish jarayonlari soddalashtirildi va naqd pul aylanmasiga chek qo'yildi.

Shu bilan birga, 1 012 ta shtat birligi qisqartirilib, bir yil ichida 25,4 milliard so'm tejaldi⁷⁴. Bu islohotlar orqali oliy ta'lif sohasiga davlat budgetidan ajratilayotgan mablag'lar tejaldi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni davom ettirishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, muhandislik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir keng qamrovli chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning oliy ta'lif tizimi so'nggi yillarda rivojlanib borayotganligi sababli oliy ta'lif muassasalarining ikki asosiy turi — davlat (ommaviy) va xususiy (nodavlat) —oliy ta'lif muassasalari shakllangan. Davlat oliy ta'lif muassasalari davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi va davlat tomonidan boshqariladi. Ularning asosiy maqsadi jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladigan, malakali kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Davlat oliy ta'lif muassasalari ta'lif dasturlarini va o'quv rejalarini davlat tomonidan belgilangan me'yorlar asosida amalga oshiradi.

Bu muassasalar o'z faoliyatini davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar yordamida olib boradi va faoliyatlarini Davlat test markazi tomonidan nazorat qilinadi⁷⁵. Xususiy oliy ta'lif muassasalari o'z faoliyatini o'z mablag'larini, o'quvchilar to'lovlari yordamida moliyalashtiradi va tijorat maqsadida olib boradi. Xususiy oliy ta'lif muassasalari davlat tomonidan belgilangan akkreditatsiya va attestatsiya jarayonlaridan o'tishi kerak⁷⁶.

Chunki ularning ta'lif dasturlarini davlat me'yorlariga muvofiq shakllantirishi lozim, ammo ular o'zlar mustaqil tarzda rivojlantiradi. Shu bilan birga, xususiy ta'lif muassasalari ko'proq moslashuvchanlikka ega, chunki ular tezda o'z ta'lif dasturlarini jamiyatning talablariga mos ravishda yangilab borishi mumkin. Biroq, ular davlat tomonidan belgilangan sifat standartlariga rioya qilishlari shartdir.

Xususiy universitetlar, o'z ta'lif dasturlarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan Davlat ta'lif standartlariga (DTS) tayanishadi. Bu standartlar talabalarga berilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikmalar va kompetensiyalarni aniq belgilaydi va shu orqali ta'lifning sifatini nazorat qiladi.

Ko'plab xususiy universitetlar o'z o'quv dasturlarini yaratishda xalqaro universitetlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan dasturlarni qo'llaydi. Ba'zi xususiy oliy ta'lif muassasalari chet el universitetlarining o'quv dasturlarini moslashtiradilar (O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq). Bundan tashqari, Yevropa kredit tizimi (ECTS) asosida o'quv rejalarini joriy etishmoqda. Misol uchun: TEAM University Toshkent Buyuk Britaniyaning London Metropolitan University bilan qo'shma dastur yuritadi.

Webster University AQShning Websteri o'zining ko'chirish asosida o'z ta'lif dasturlarini amalga oshiradi⁷⁷. Bu ikki xususiy oliy ta'lif muassasasi ham o'z o'quv

⁷⁴ <https://gov.uz/oz/edu/pages/hisobotlar>

⁷⁵ MyGov - Electronic Public Services+2Oliy ta'lif markazi+2edujournal.uz+2

⁷⁶ <https://edu.uz> – Akkreditatsiya tartibi va <https://dsqi.uz> – Davlat inspeksiyasi

⁷⁷ <https://teamuni.uz> va <https://webster.uz>

dasturlarini xorijiy o'quv dasturlar asosida amalga oshiradi va bu juda samarali hisoblanadi.

Davlat oliy ta'lif muassasalarida o'qish ko'pincha davlat granti asosida amalga oshiriladi, bu esa ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan qatlamlar uchun imkoniyat yaratadi. Xususiy oliy ta'lif muassasalarida esa o'qish to'lov asosida bo'lib, o'qituvchilar va talabalar tarkibining turli darajadagi ijtimoiy qatlamlarni o'z ichiga olishini ta'minlaydi. Xususiy oliy ta'lif muassasalari nafaqat ta'lif sifatiga, balki talabaning shaxsiy rivojiga, kelajakdagi muvaffaqiyatiga ham sarmoya kiritadi. Bugungi kunda aksariyat ota-onalar va yoshlar aynan xususiy ta'lifni tanlayotgani bejiz emas, chunki bu ta'lif turi zamon talabiga mos, sifatli va samarali o'qishni ta'minlaydi. Yuqoridagi tafovutlardan shu narsa ma'lumki, Xususiy oliy ta'lif muassasalarida bir-biri bilan sog'lom raqobat yaxshi rivojlangan shuningdek, o'qitish tizimi ham Davlat ta'lif sifatlariga mos bo'lsada ular asosan xorijiy oliy ta'lif muassasalaridan ta'lif dasturlarini olishadi va bu bilan ular xalqaro standartlar asosida ham ta'lif berishadi⁷⁸. Xususiy oliy ta'lif muassasalarini yanada ko'paytirish va ularni sifatli ta'lif berishini ta'minlash maqsadida, hukumat a'zolari tomonidan "Nodavlat ta'lifda ikki bosqichli litsenziyalash va mustaqil sifat nazorati joriy etish"ga oidmasalalar ko'rib chiqilib muhokama qilindi. Muzokaralar davomida, so'nggi yillarda 71 ta xususiy oliygoh va 51 ta xususiy texnikum tashkil etilib, ularda 500 ming nafarga yaqin talaba va o'quvchilar tahsil olishayotganligi va buning natijasida mamlakatimizda oliy ta'lif bilan qamrov 9 foizdan 42 foizga oshganligi ma'lum qilindi⁷⁹. Shuningdek, NTTlarda qabul parametrlari, ta'lif dasturlari, o'quv jarayonlari hamda ilmiy salohiyatni sifat jihatidan yaxshilash, ularni zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish eng asosiy masala bo'lib qolmoqda. Bu masalalarga yechim sifatida nodavlat ta'lif xizmatlarini ko'rsatishni tartibga solish, litsenziyalash tizimini takomillashtirish hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha yangi tizimni joriy etish asosiy yechim bo'la oladi. Xususan, bu xorijiy tajribalar⁸⁰ asosida ikki bosqichli litsenziyalash tizimiga o'tish, ta'lif dasturlarini maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish hamda har besh yilda kompleks davlat akkreditatsiyasini tashkil etilishi lozim. Ta'lif sifatini ta'minlash va tashqi baholashning joriy etilishi xususiy kasbiy va xususiy oliy ta'lif muassasalarida o'qitish samaradorligi va ilmiy salohiyatni oshirib, ularning xalqaro reytinglardagi o'rnnini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ma'lumot uchun, bugungi kunda nodavlat va litsenziyaga ega OTMlar soni 56 tani tashkil etmoqda. Bu amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizni xalqaro ta'lif indeksida yuqori o'rinni egallashiga bevosita ta'sir qiladi, xuddi shu kabi bir qancha islohotlar orqali mamlakatimizdan yuqori turuvchi davlatlar xalqaro ta'lif reytingda sezilarli natijalarga erishgan. Bunga misol sifatida, 2025-yilgi Times Higher

⁷⁸ <https://www.gazeta.uz>

⁷⁹ <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/24/high-education/>

⁸⁰ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/40817_1_0CD30F10E0B3A48C77DAD0ED246409E0B005E566.pdf

Education (THE) World University Rankings reytingida O'zbekistonning qo'shnisi bo'lgan Qozog'istonni olaylik. Qozog'iston oliy ta'lif tizimi turli institutlar, jumladan, milliy tadqiqot universitetlari, akademiyalar va xususiy universitetlar orqali har tomonlama kadrlar tayyorlashni ta'minlash uchun tuzilgan. Uning ta'lif tizim kunduzgi va tashqi o'qish rejimlaridan tashkil topgan. Talabalar bakalavr yoki mutaxassislik darajasini olishlari mumkin, birinchisi kamida 240 akademik kredit (ECTS), ikkinchisi esa kamida 300 kreditni talab qiladi. Qozog'iston oliy ta'lifi bir necha bosqichlarni, jumladan, magistratura, rezidentura va Ph.D.dan iborat oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lifni o'z ichiga oladi. dasturlar. Magistrlik darajasi ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin: kamida 120 kredit talab qiladigan ilmiy va o'qituvchilar tayyorlash yo'nalishi yoki 60-90 kredit talab qiladigan kasbiy yo'naltirilgan daraja. Ph.D. dasturlar magistr darajasidan keyin kamida 180 kredit talab qiladi⁸¹. Bundan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi tibbiy ta'lif ikki yildan to'rt yilgacha bo'lgan muddatlarda klinik mutaxassisliklar bo'yicha malaka oshirishni ta'minlaydigan rezidentura dasturlarini o'z ichiga oladi. 2024 yil holatiga ko'ra, Qozog'istonda jami 104 ta oliy ta'lif muassasasi akkreditatsiyadan o'tgan, jumladan, 11 ta milliy universitet, 34 ta davlat universiteti, bitta xalqaro universitet va 48 ta xususiy universitet. O'quv yili ikki semestrga bo'lingan 40 haftani o'z ichiga oladi, har biri imtihonlar bilan yakunlanadi⁸². Bundan ko'rinish turibdiki, Qozog'istonda ham davlat oliy ta'lif muassasalariga qaraganda xususiy oliy ta'lif muassasalari ko'p. Qozog'istonda bilim, ko'nikma va malakalar uchun tavsiflovchilarni o'z ichiga olgan sakkiz darajadan iborat Milliy malaka doirasi (KZ QF) yaratilgan. Ushbu tizim xalqaro standartlarga mos keladi va turli ta'lif darajalari bo'yicha malakalarning tan olinishini osonlashtiradi. 6 dan 8 gacha bo'lgan darajalar oliy ta'lif darajalari uchun maxsus mo'ljallangan, 2 dan 4 gacha bo'lgan darajalar esa umumiylar va kasbiy ta'limga tegishli. Ushbu yondashuv talabalarni mehnat bozoriga munosib tayyorlashini ta'minlaydi. Qozog'iston universitetlari malaka bo'yicha xalqaro standartlarga rioxanalar qilgan holda ingliz tilida Diplom ilovasini chiqaradi. Qozog'istonda yuqorida takidlanganidek ikki xil magistratura bosqichi bor: 1) oliy ma'lumotli ilmiy izlanuvchilar uchun, hamda, 2) kasbiy magistratura ,bu tizim bugungi kunda Qozog'iston jamiyati uchun ham malakali kadrlarni tayyorlash, ham yuqori malakali olimlarni tayyorlab berish uchun xizmat qilmoqda⁸³. Bu tizimni O'zbekistonga ham joriy qilish lozim, bu tizim orqali malakali kadrlar tanqisligiga chek qo'yish mumkin. Qozog'iston ta'lif tizimining eng muhim ustunliklaridan yana biri ularda ta'lif tizimi faqatgina ona tilida emas balki ingliz va rus tilida amalga oshiriladi qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar. Bu o'z navbatida talabalar uchun ingliz va rus tilida yozilgan ilmiy manbalardan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

⁸¹ https://enic-kazakhstan.edu.kz/en/reference_information/universities

⁸² https://www.adscientificindex.com/university-ranking/?funding=Private&country_code=kz

⁸³ <https://www.qahe.org/article/overview-of-higher-education-in-kazakhstan/#:~:text=Kazakhstan's%20higher%20education%20system%20is,diverse%20range%20of%20educational%20needs.>

Agarda O'zbekistonda ham ta'limga faqatgina o'zbek tilida emas ingliz tili yoki rus tilida o'tilishi qat'iy qilib belgilab qo'yilsa, talabalar ham yil o'rghanishadi, ham chet el ilmiy manbalaridan hech qanday qiyinchiliksiz foydalana olishadi.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston ta'limga tizimini ham yanada rivojlantirish uchun bir qancha maqsadlar va konsepsiylar ishlab chiqildi. Bular jumlasiga : "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"⁸⁴. Bu konsepsiya oliy ta'limga tizimini yanada rivojlantirish uchun bir qancha maqsadlar belgilab qo'yildi. Bularдан eng asosiyлари:

- 1) Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish,
- 2) Oliy ta'limga muassasalarini global reytinglarda yuqori o'rinniga olib chiqish,
- 3) Ilg'or xalqaro standartlar joriy etish,

4) Yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi bir qancha maqsadlar belgilab qo'yildi. Ushbu konsepsiya belgilangan maqsadlar amalga oshirilsa 2030-yilda O'zbekiston xalqaro ta'limga indeksida yuqori o'rinni egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda oliy ta'limga rivojlantirish uchun oliy ta'limga sohasida sog'lom raqobatni ta'minlash lozim, buning uchun mamlakatimizda xususiy oliy ta'limga muassasalarini ko'paytirish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib nazorat qilish darkor.

Shuningdek xalqaro tajribalardan foydalananib yangi ta'limga tizimi va o'quv dasturlar ishlab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. MyGov, Edujournal.uz, Oliy ta'limga markazi – O'zbekiston oliy ta'limga tizimining raqamlashtirilishi va elektron xizmatlari to'g'risida.
2. TEAM University va Webster University rasmiy saytlari. Xususiy oliy ta'limga muassasalarining xalqaro hamkorlikdagi qo'shma dasturlari haqida. <https://teamuni.uz>, <https://webster.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limga, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). Ta'limga dasturlarining akkreditatsiya tartibi. <https://edu.uz>
4. O'zbekiston oliy ta'limga muassasalarida xalqaro sifat auditini joriy qilinmoqda. (2022). QS Asia va Times Higher Education reytinglariga kirish tashabbuslari.
5. Davlat ta'limga sifati inspeksiysi (DSQI). (2024). Oliy ta'limga sifat nazorati tizimi haqida. <https://www.dsqi.uz>
6. <https://gazeta.uz>
7. The Astana Times – Qozog'iston ta'limga oid yangiliklar va xalqaro reytingdagi ishtiroki. <https://www.theastanatimes.com>
8. Qazinform – Qozog'iston universitetlarining reyting natijalari. <https://www.qazinform.com>

⁸⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>